

# **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

## **KORXONALARDA IQTISODIY RESURSLAR TAHLILINING MUHIM JIHATLARI**

***Klichev Botir Pardayevich***

*Yaponianing Toyo universiteti*

*“Xalqaro turizm menejmenti” magistranti*

*e-mail:botirklichev@gmail.com*

***Ilmiy raxbar: Qlichev B. P.***

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Moliyaviy tahlil” kafedrasи dotsenti, PhD*

*e-mail: klichev.baxtiyor@gmail.com*

*ORCID: 0000-0001-6938-7897*

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ishida korxonalar faoliyatini rivojlantirishda iqtisodiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanish tahlilining mazmuni va muhim jihatlari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** asosiy vositalar, TMZ lar, mehnat resurslari, resurslardan samarali foydalanish, muammoli jihatlar, erishiladigan natijalar

Xalqaro va milliy amaliyotda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishda yuqorida kabi turli texnologiyalar va metodlar mavjud. Iqtisodiy tahlilning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, ushbu metodlar alohida yoki birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Bunda asosiy e'tibor operatsion faoliyat tahlilini amalga oshirishda aniqlanadigan ko'rsatkichlar to'g'ri tanlanishiga qaratilishi lozim.

Operatsion faoliyat tahlili turli yo'nalishda olib borilsada, tahlil davomida o'rganiladigan ko'rsatkichlar mazmunan bir-biriga yaqin hisoblanadi [Кличев Баҳтиёр Пардаевич, (2023)]. Tahlil davomida korxonalarining TMZ lar, asosiy vositalar, va mehnat resurslari, mazkur resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari tahlilining mazmuni, tahlil natijalari baholanadi, dinamik o'zgarishlari va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi.

**1-jadval**

### **Iqtisodiy subyektlarda TMZ lar tahlilining muhim jihatlari<sup>1</sup>**

T/r	O'rganiladigan ko'rsatkichlar	Tahlil mazmuni va natijasi
1.	TMZ lar tahlilining nazariy asoslari	Ta'rifi, turkumlanishi, tahlil vazifalari, axborot manbalari bayon etiladi. Zamonaviy ta'rifi, turkumlanishi, tahlil mazmuni, vazifalari, axborot manbalari tavsiflanadi.
2.	TMZ lar bilan ta'minlanganlik	TMZ lar bilan ta'minlanganlikning holatiga, dinamik o'zgarishlariga baho beriladi. TMZ lar

<sup>1</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

	koeffitsiyentlari	bilan ta'minlanganlikdagi salbiy holatlar va uni yaxshilash choralari ko'riladi
3.	TMZ lar samarali foydalanish koeffitsiyentlari	TMZ lardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari o'zgarishi va ularning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri baholanadi. TMZ lardan kelgusida samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanadi amaliyotga qo'llaniladi.
4.	TMZ larning aylanuvchanlik koeffitsiyentlari	TMZ larning yangidan qiymat yaratishga, ularning qaytuvchanlik darajasiga, ish aktivligiga baho beriladi. TMZ lar aylanuvchanligining joriy holati va uni kelgusida yanada yaxshilash choralari ko'riladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning TMZ lar va ulardan samarali foydalanish tahlilida xo'jalik subyektining moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi, samaradorligi, jami aktivlar tarkibidagi salmog'i, moliyalashtirilishi, aylanuvchanligi bilan bog'liq jihatlar tahlil etiladi (1-jadval). Tahlil davomida ushbu ko'rsatkichlarning o'tgan yillarga nisbatan dinamik o'zgarishlari va ularga ta'sir etuvchi omillar o'rganib boriladi, xulosalar shakllantiriladi, taklif va tavsiyalar beriladi.

Operatsion faoliyat tahlilida asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik, ularning holati, harakati, ulardan samarali foydalanish, asosiy vositalarning rentabelligini baholashda tahlilning metodologik asoslari quyidagilardan iborat (2-jadval).

### 2-jadval

#### Asosiy vositalar tahlilining muhim jihatlari<sup>2</sup>

T/r	O'rganiladigan ko'rsatkichlar	Tahlil mazmuni va natijalari
1.	Asosiy vositalar tahlilining nazariy asoslari	Zamonaviy ta'riflar, turkumlanishi, tahlil vazifalari, axborot manbalari bayon etiladi va tahlil mazmuniga ko'ra tavsiflanadi
2.	Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari	Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlik darajalari, ularning dinamik o'zgarishlari o'rganiladi. Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.
3.	Asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlari	Asosiy vositalarning harakat va holat ko'rsatkichlariga baho beriladi, dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi. Mazkur ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.
4.	Asosiy vositalardan samarali foydalanish	Asosiy vositalarning qaytimi va sig'imi ko'rsatkichlari, ularning o'zgarishi va unga

<sup>2</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

	ko'rsatkichlari	ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Samaradorlik ko'rsatkichlari oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.
--	-----------------	---

Asosiy vositalar tahlilining yana bir muhim jihatni iqtisodiy tahlil ishlari davomida mazkur ko'rsatkichlarning bir-biriga bog'liqligi e'tiborga olinishi lozim. Ya'ni asosiy vositalarning samaradorligi asosiy vositalarning holatiga bog'liq bo'lsa, asosiy vositalarning holatini yangilash asosiy vositalarning harakatiga bog'liq bo'ladi [Кличев, Б. П. (2022)].

Korxonalarda asosiy vositalar, xom-ashyo va materiallar bilan ta'minlanganlik hamda ulardan samarali foydalanish mehnat resusrlariga ham chambarchas bog'liq hisoblanadi. Operatsion faoliyat samaradorligi haqida so'z yuritar ekanmiz, mehnat resurslarisiz, ularning holati, harakatini, ulardan samarali foydalanish darajasini o'rganmasdan, yuqori samaradorlikka erishib bo'lmaydi [Пардаевич, К. Б. (2023)]. Bugungi kundagi eng zamonaviy texnologiyani ham inson omili boshqarishini hisobga olsak, korxonalarda mehnat resurslarining harakati, motivatsion holati, unumdarligini doimo o'rganib turish operatsion faoliyat tahlilining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Operatsion faoliyat tahlilida mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, ularning harakati, ishchi kuchidan samarali foydalanish, mehnat resurslari rentabelligini baholashda tahlilning muhim jihatlari 3-jadvalda umumlashgan.

### 3-jadval

#### **Mehnat resurslari tahlilida o'rganiladigan ko'rsatkichlar va ularning muhim jihatlari<sup>3</sup>**

T/r	O'rganiladigan ko'rsatkichlar	Tahlil mazmuni va natijalari
1.	Mehnat resurslari tahlilining nazariy jihatlari	Ishchi kuchini tasniflash, amalga oshiriladigan iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari, mehnat resusrlari tahlili bo'yicha axborot manbalari shakllantiriladi va tahlil mazmuniga ko'ra tavsiflanadi. Unumdarlikni aniqlash bo'yicha davr belgilanadi.
2.	Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik koeffitsiyentlari	Ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik va ishchilarining qurollanganlik darjasи, ushbu ko'rsatkichlarning dinamik o'zgarishlari o'rganiladi. Ishchi kuchi ta'minlanganlik va ishchilarining qurollanganlik darajasini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.
3.	Ishchilarining motivatsion holati va harakat	Ishchi kuchining harakati va ularning motivatsion holati ko'rsatkichlariga baho beriladi, dinamik o'zgarishlari tahlil qilinadi.

<sup>3</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

## BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

	ko'rsatkichlari	Moddiy va ma'naviy motivatsiya orqali rag'batlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.
4.	Ishchi kuchidan samarali foydalanish ko'rsatkichlari	Mehnat unumдорлиги va mehnat sig'imi ko'rsatkichlari, ularning o'zgarishi va unga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Ishchilarning unumдорлик ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar beriladi.

Xalqaro amaliyotda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etishda tahlilning maqsadi, muddati, kompaniyalar faoliyat olib boradigan tarmoq va sohalar xususiyatidan kelib chiqib turli yo'naliishlarda amalga oshiriladi. Olib borgan tadqiqotlarimizda ishlab chiqarish tarmog'idagi xo'jalik yurituvchi subyektlarda operatsion faoliyat tahlilini tashkil etish yo'naliishlari ishlab chiqilib, mazkur yo'naliishlarda amalga oshiriladigan tahliliy ishlarda aniqlaniladigan ko'rsatkichlar tasniflab chiqilgan. Ushbu tadqiqot ishimizda esa ko'rsatkichlarni aniqlash va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlarga bo'lib, ularning ta'sirini tahlil qilishning muhim jihatlari ko'rsatib berildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион цикл таҳлилини ташкил этиш масалалари. *World Scientific Research Journal*, 16(1), 196-203.
2. Кличев, Б. П. (2022). Махсулот сотиши ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(5), 1719-1728.
3. Кличев Бахтиёр Пардаевич, (2023). Корхоналарда махсулот ишлаб чиқариш ҳажми таҳлилини такомиллаштириш масалалари. *Issues of improving the analysis of the volume of production at enterprises. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(7), 42–49. Retrieved from <http://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/2782>
4. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of "International Finance & Accounting*, 2, 2181-1016.
5. Кличев, Б. П. (2022). Ишбилиармонлик фаоллиги таҳлилини ташкил этиш йўналишлари. *Архив научных исследований*, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
6. Maxmatqulova H.G'. "Properties of borel sets". "Innovation in technology and Sciense Education", Scientific journal.2023. Vol.2.№14. P.169-175.

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

7. Ochilov, O. I. (2022). INVESTMENT QUALITY ANALYSIS IN BUSINESS ENTITIES. Архив научных исследований, 2(1).
8. Ochilov, O. (2022). ИНСОН КАПИТАЛИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ. Архив научных исследований, 2(1).
9. Ochilov, O. I. (2019). DEVELOPMENT OF METHODOLOGY FOR RECOGNIZING REVENUES FROM INVESTMENTS. In Бухгалтерский учет, анализ и аудит: история, современность и перспективы развития (pp. 96-99).
10. Ochilov, O. I. (2019). THEORETICAL BASES OF INVESTMENTS ACCOUNTING. In БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ: ДОСТИЖЕНИЯ И НАУЧНЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ XXI ВЕКА (pp. 209-214).
11. Ochilov, O. I. (2018). METHODOLOGICAL ASPECTS OF FINANCIAL AND ECONOMIC PERFORMANCE ANALYSIS OF BUSINESS ENTITY. In АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА, СТАТИСТИКИ И НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ (pp. 26-34).
12. Юлдашев, Ж. А. ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА МИЖОЗЛАР БИЛАН МУНОСАБАТЛАР ҲОЛАТИНИ БАҲОЛАШ УСУЛИНИ ТАКОМИЛАШТИРИШ.
13. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda CVP-tahlilni tashkil etishning muammoli jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 4 (2024), 754–759
14. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2024). Problematic Aspects of Organizing Cvp-Analysis in the Enterprises of Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 5(5), 241–248. Retrieved from <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/4906>
15. Kholdorov Sardor Umarovich. (2024). LIQUIDITY RISK MANAGEMENT IN THE BANKING SECTOR: CHALLENGES, STRATEGIES AND IMPLICATIONS. World Scientific Research Journal, 26(3), 122–131. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3255>
16. Qlichev Baxtiyor Pardayevich. (2024). Korxonalarda operatsion faoliyat samaradorligini tahlil qilish masalalari. World Scientific Research Journal, 26(3), 86–94. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3251>
17. ҚЛИЧЕВ, . Б. П. (2022). ИШБИЛАРМОНЛИК ФАОЛЛИГИ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/373>
18. Qlichev, B. (2024). Korxonalar faoliyatini rivojlantirishda operatsion faoliyat tahlilining zarurligi. Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari, Konferensiya to 'plami. Termiz, O'zbekiston. 15-iyun 2024-yil. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11909171>

## **BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI**

19. Yakypbaevich, I. J. ., Abrarovich, Y. J. , Akhtamovich, H. S. ., & Bekmurodova. (2023). COMMERCIAL BANKING, CREDIT OPERATIONS, PROVISION OF COLLATERAL, ASSESSMENT MECHANISMS. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION*, 2(4), 6–13. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/251>
20. Abdullayev, A., & Djamatov, H. (2023). ORGANIZATIONAL STRUCTURE OF THE INTERNAL CONTROL SERVICE FOR THE FULFILLMENT OF TAX OBLIGATIONS OF ENTERPRISES. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 8(4), 297-307.
21. Xudoyorov, O. O. (2023). Bank daromadlarini oshirishda masofaviy bank xizmatlarini tutgan o'rni.
22. Odilovich, K. O. (2024). IMPACT OF REMOTE BANKING SERVICES ON BANK INCOME. *International Journal of Education, Social Science & Humanities*, 12(6), 82-86.
23. Majidov, J. K. (2019). Ways of improving management of credit portfolio at commercial banks. *International Journal of Research in Social Sciences*, 9(3), 725-736.
24. Мажидов Ж. (2024). Тижорат банклари активлар портфелларининг сифатини ошириш бўйича хориж тажрибаси ва унинг ўзига хос хусусиятлари. (2024). *Ustozlar Uchun*, 1(4), 1463-1467. <https://pedagoglar.org/index.php/02/article/view/3878>

